

## NEMIS TILINI O'QITISHDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIZIQARLI TAHLILLARI

*Xalilova Zilola Farmonovna*  
*Navoiy davlat universiteti*  
*13.00.02. tayanch doktranti*

### УНИКАЛЬНОСТЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

*Халилова Зилола Фармоновна*  
*Навоийский государственный университет*  
*13.00.02. базовый докторант*

### THE UNIQUENESS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE GERMAN LANGUAGE

*Khalilova Zilola Farmonovna*  
*Navoi State University*  
*13.00.02. basic doctoral student*



[zilolaxhalilova@inbox.ru](mailto:zilolaxhalilova@inbox.ru)

<https://orcid.org/0009-0008-1343-5720>

**Annotatsiya:** *Frazeologiya tildagi sobit so'z birikmalari va idiomalarni o'rganadi, bu so'zlar ortidagi tarixiy ildizlar chuqur ma'no va madaniyatni tushunishga yordam beradigan ajoyib sohadir.*

**Kalit so'zlar:** *nuans, madaniyat, noziklik, sinsemantika, ideomatizatsiya, frazema, metafora, obraz, tafakkur, ilmiylik, barqarorlik, almashish, nutqiylik.*

**Аннотация:** *Фраzeология — это изучение устойчивых фраз и идиом на языке, увлекательная область, в которой исторические корни этих слов могут помочь нам понять более глубокий смысл и культуру.*

**Ключевые слова:** *нюанс, культура, тонкость, синсемантика, идеоматизация, фраза, метафора, образ, мышление, научность, устойчивость, обмен, дискурс.*

**Annotation:** *Phraseology is the study of fixed phrases and idioms in a language, a fascinating field in which the historical roots of these words can help us understand deeper meaning and culture.*

**Key words:** *nuance, culture, subtlety, synsemantics, ideomatization, phrase, metaphor, image, thinking, scientificity, stability, exchange, discourse.*

**KIRISH.** Frazeologiya tildagi sobit so'z birikmalari va idiomalarni o'rganadi, bu so'zlar ostidagi ma'no va ulug'lik madaniyatni tushunishga yordam beradigan ajoyib sohadir. Frazeologik birliklarni o'rganish orqali siz nafaqat so'z boyligingizni kengaytira olasiz, balki tilning nuanslari va kontekstini ham chuqurroq o'rgana olamiz. Frazeologiya nafaqat tillarni o'rganish, balki xalqlar o'rtasidagi madaniyatlarni kashf qilishning kalitidir.

Frazeologizmlar – frazema, so'z gruppalari, ideoma, so'z birikma, mustahkam birikmalar barchasi frazeologik birliklar jamlanmasidir. Burger ta'rificha frazeologiya lingvistikaning bir qismi bo'lib, frazeologik birliklarni o'rganadi. Frazeologiya - bu tildagi turg'un so'z birikmalari haqidagi fan bo'lib, ular tuzilish va gapda alohida so'zlar (leksemalar) vazifasi va ma'nosini qamrab oladi.

Frazeologiyani inson til faoliyatida lug'at boyligini kengaytirish, dunyoni nomlash va qayta

ishlash vositasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Frazeologizmlar, birinchi navbatda, hissiyotlar, munosabat va hatti-harakatlar kabi ruhiy o‘zgaruvchanlikni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Frazeologiya bilan bog‘liq holda endi tilning ruhiy leksikasi haqida gapirish mumkin.

Frazeologiya qismlar kesimida ma‘nosi bo‘linmaydigan, o‘zgarmaydigan va o‘zgaradigan qismlarda tahlil etilishi kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Xorij olimlari V.Flaysler, V.V.Vinogradov, E.D.Polivanov, B.A.Larin, A.V.Kunin, L.I.Royzenzon, A.M.Bushuy, V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova, S.I.Zinin, V.M.Kalinin kabi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar e‘tiborlidir. Xuddi shunday o‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev, A.Mamatov, A.Abdualazizov, Sh.S.Imyaminova, M.Ulug‘ovalar adabiyot va tilshunoslikda frazeologik birliklar tahlillarni olib borganlar.

### TAHLIL VA NATIJALAR.

Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma‘noda uchraydi. Masalan; chakagi ochildi odatda ko‘p marta - ( hayvonga nisbatan), uzluksiz jovra- kishiga nisbatan, yangi bir hodisa;

pulemyotning o‘q uzishiga ko‘chirgan;  
Pulemyotning chakagi ochilib ketdi.

(nemis tili frazeologik birlikda so‘zma-so‘z tarjimada bu ibora, xuddi oqadigan suv sharsharasidek ), (to‘xtamay gapirish, ko‘p va to‘xtovsiz gapirish, jag‘i ochilmoq, jag‘i tinmadi, vaysamoq ma‘nolarida ifodalanadi). Er kann reden wie ein Wasserfall, ohne Unterbrechung und in einem fort. (Chakagi tinmay, to‘xtovsiz gapirardi).

Sie ist sehr geschwätzig und redet wie ein Wasserfall. (U juda gapdon, to‘xtamasdan gapirardi). Die beiden redeten wie ein Wasserfall und ließen niemand anderen mehr zu Wort kommen. ( Boshqalarga so‘z bermay, ikkovi to‘xtovsiz gapirardi.)



Stumm wie ein Fisch sein nicht sagen, sich nicht äußern- indamay, lom-mim demaslik, dami chiqmadi— mum tishlab qolmoq. Baliqdek jim bo‘lmoq, gapirmaslik. (so‘zma –so‘z tarjimada) Wir brauchen jetzt absolute Ruhe. Alle müssen stumm wie ein Fisch sein. Bizda hozir tinchlik kerak. Hamma baliqdek jim bo‘lishi kerak. Alle sagten ihre Meinung, nur Helga blieb mal wieder stumm wie ein Fisch. (Hamma o‘z fikrini aytgandi, faqat Helga lom-mim demadi). Der Kandidat wusste die Antwort nicht und blieb stumm wie ein Fisch. (Nomzodlar javob topolmay, jim turardilar).



**Die Nase hoch tragen-** eingebildet und arrogant sein- (dimog‘dor, mag‘rur, kibr-havoli, tumshug‘i osmonda) Die Nase hoch tragen: *eingebildet sein:* Ich trage jedenfalls nicht die Nase hoch, nur weil ich früher mal in der Bundesliga gespielt habe, erklärt Lesniak. (Kölner Stadt-Anzeiger 15. 2. 2014, 46).<sup>3</sup>

## „Nase hoch tragen“

gebildet und arrogant sein



deutschlernerblog.de

Masalan: burnini ko‘tar - burni ko‘tarildi, kibrlandi, gerdaydi bulardan ma‘no kuchlisi dimog‘i shishdi. Frazemalar voqeylikni salbiy yoki ijobiy munosabatini yaqqol baholashda asos bo‘lib hisoblanadi va tilda tug‘iladi.

Jmdm. den Kopf waschen – ugs.; jmdm. gründlich die Meinung sagen, scharf zurechtweisen. Asliyat, *so‘zma–so‘z tarjimada* (kimnidir boshini yuvmoq). Kimgadir suhbatda fikrini to‘liq aytmoq.



Qism ikki yoki undan ortiq leksik variantlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Grammatik va leksik sohalarida ham imkoniyatlar mavjud: Sinonim frazemalar frazemalar variantlarida farqlanadi: Masalan: yangi-qo‘l tegmagan, oxori to‘kilmagan, qirovi to‘kilmagan frazemalar o‘zaro sinonim chunki bularni asosida boshqa-boshqa obraz yotadi. (1. To‘quvchilikda, 2. Pichoqchilikdan olingan), boshqa-boshqa leksemalardan tashkil topgan.

1. Burger, Harald: Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen.

4., neu bearbeitete Auflage. Berlin, 2010

Boshqa tildan frazema sinonimini o‘zlashtirish ham nutqimizda uchraydi. Masalan: lange Haare, kurzer Verstand/ ayolni sochi uzun, aqli kalta, Ayollarning aqli emasligi ayolni sochi uzun, aqli kalta fikrni targ‘ib qilish uchun qo‘llanilgan eski, (*so‘zma–so‘z tarjima*) soch uzun, aql kalta ayol so‘zi nemis tilida berilmagan bo‘lsa-da, sinonim sifatida yo‘naltira olamiz. (Dobrovolskij 2009:118) Ayollardan farqli o‘laroq, erkaklar har doim oilaning boquvchisi va himoyachisi sifatida qaraladi. Ular, shuningdek, umuman olganda, kuchli, topqir, aqli, qat‘iyatli ko‘rsatiladi. Fleisher tomonidan frazeologik birliklarning grammatik o‘zgarishlarining besh xil muqobilligi kuzatiladi: masalan: seine Hand/ seine Hände im Spiel haben<sup>3</sup> - otlarda birlik va ko‘plik; bis zum Hals/ bis über den Hals<sup>2</sup> – qo‘shimcha va artikel almashinuvi asosida; ein schiefes Gesicht machen/ ziehen - fe‘l almashinishi asosida; sich etw. im Kalender anstreichen/ sich etw. rot im Kalender anstreichen – sifat leksemasi qo‘shilishi asosida; aussehen wie Milch und Blut/ wie Milch und Blut aussehen – o‘rin almashinish asosida frazeologik birliklar tillarda qo‘llaniladi. Bu muqobillik bizning tilimizda ham o‘z o‘rniga ega. Masalan:avval-oldin; podadan oldin/avval chang chiqar-Almashunuvchi leksemalar o‘zaro sinonim yoki yaqin ma‘noli bo‘ladi, shunga ko‘ra allofrazemalar, o‘zaro ma‘no semasida, baho semasida farq qiladi. Vahima-vahm/bosdi; haddan ziyod/ziyoda;

Sinonimik almashuv: sanamay sakkiz / sanamasdan sakkiz de-; Ko‘z ilg‘amas/ilg‘amaydigan, boshiga qilich kelsa ham / kelganda ham, xamirdan qil sug‘urganday / sug‘urgandek, xamir uchidan patir / xamirning uchidan patir.

**Argument. Son frazeologik birliklar nemis va o‘zbek tillarida:**

im siebten Himmel sein - o‘zini yettinchi osmonda his qilmoq;

- von den Gefühlen höchsten (Liebes-)Glücks erfüllt sein<sup>2</sup> ;Sie liebt ihren Rolf innig und ist im siebten Himmel.<sup>1</sup> mir ist alles eins- menga hammasi bir tiyin;

2. DUDEN. Bd. 11: Redewendungen. Mannheim, 2002

**Tavsif.** Frazeologiya til va umuman madaniyatning ajralmas qismi sifatida tilni o'rganishda uni inkor etib, e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan hodisadir.

- bir shingil, ellik og'iz, yetti qovun pishig'i, yetti uxlab tushiga kirmaslik, bir ko'ngil, bir boshdan, bir og'izdan, ikki dunyoda ham, besh barmog'iday, daryodan bir tomchi, ikki / yetti bukilib, bir go'r, bir pul, bir chaqaga olmaslik, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday, ko'zi to'rt, bir qaynovi ichida, to'rt tarafi qibla, ikki dunyo bir qadam frazeologik iboralar tahlil etiladi va faol til vositasi sifatida muloqotda ishlatiladi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida izohlanganda ikki til orasidagi iboralar o'xshashligi va bir xil ma'no uchun xizmat qilishi tahlil qilindi, o'z tilimizning muqobil variantlari mavjudligi o'quvchi nutqini o'stirishga va muloqot tilimizning rang-barangligini oshirishga xizmat qiladi. Biz tilimizdagi frazeologik birliklarning serqirra va

jozibadorligini tillar kesimida tahlil etib, nemis tili izohida tenglashtira olamiz va nutqimizda faol qo'llaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Burger, Harald: Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4., neu bearbeitete Auflage. Berlin, 2010.
2. DUDEN. Bd. 11: Redewendungen. Mannheim, 2002.
3. DUDEN. Bd. 12: Zitate und Aussprüche. Mannheim, 2012.
4. Donalies, Elke: Basiswissen Deutsche Phraseologie. Tübingen, 2009.
5. Fleischer, Wolfgang: Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2., durchgesehene und ergänzte Auflage. Tübingen, 1997.
6. Christine Palm: Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen; Narr 1995.